KOGNITIV TISHUNOSLIKNING ASOSIY KATEGORIYALARI

Sohiba BABANAZAROVA
doktorant
Xorazm Ma’mun akademiyasi
Xorazm, O‘zbekiston
sohibababanazarova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning fundamental tushunchalari va ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi va konsept, konseptosfera hamda ularning tafakkur jarayonlaridagi o‘rni batafsil yoritiladi, kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari va asosiy kategoriyalari tahlil qilinadi. Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri, dunyo tasavvuri va til o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganadigan fan sohasi sifatida tavsiflanadi. Maqola zamonaviy kognitiv tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan asosiy kategoriyalarni aniqlashga yordam beradi va til, tafakkur hamda madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Tayanch so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptosfera, konseptual tuzilmalar, til va tafakkur, kognitiv strukturalar.

ОСНОВНЫЕ КАТЕГОРИИ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Сохиба БАБАНАЗАРОВА
докторант
Хорезмская Академия Мамуна
Хорезм, Узбекистан
sohibababanazarova@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматриваются фундаментальные понятия и научные основы когнитивной лингвистики. Подробно освещается роль концепта, концептосферы и их роль в процессах мышления. Анализируются теоретические основы и основные категории когнитивной лингвистики. Авторы описывают когнитивную лингвистику как область науки, изучающую взаимосвязь между человеческим мышлением, мировоззрением и языком. Статья помогает определить основные категории, широко используемые в современной когнитивной лингвистике, и предоставляет возможность более глубокого понимания взаимосвязи между языком, мышлением и культурой.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, концептосфера, концептуальные структуры, язык и мышление, когнитивные структуры.

Kognitiv lingvistika – bu tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, zamonaviy dunyo lingvistik fanining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu soha nisbatan yangi bo‘lib, unda ham nazariy masalalarda, ham tadqiqot usullarida ko‘plab bahsli jihatlar mavjud. Bu

holat tilni kognitiv nuqtayi nazardan amaliy tahlil qilish tajribasiga asoslangan kognitiv fanning nazariy va metodologik asoslarini ochib beradigan tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi.

Kognitiv lingvistika tilni kognitiv mexanizm sifatida o‘rganadi, bu mexanizm ma’lumotlarni kodlash va transformatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi [1; 53–55]. Unda biz til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarga – til va tafakkurga, tilning asosiy funksiyalariga, tilning inson uchun va insonning til uchun ahamiyatiga e’tibor qaratamiz. Kognitiv tilshunoslikda, asosan, shaxsning onggi, tafakkuri va ular bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy jarayonlari hamda holatlari o‘rganilgani uchun biz uni bilim va bilish, inson faoliyati jarayonida dunyoni idrok etish haqidagi fan deyishimiz mumkin. Kognitiv tilshunoslikka ko‘ra, inson axborotni qayta ishlash tizimi sifatida o‘rganilishi va inson xatti-harakati uning ichki holatlari nuqtayi nazaridan tavsiflanishi va tushuntirilishi kerak.

Bugungi kunda “kognitivizm” atamasi:

- inson “fikrlash mexanizmi”ning tadqiqot dasturi;
- turli kanallar orqali odamga keladigan axborotni qayta ishlash jarayonlarini o‘rganish;
- dunyoning aqliy modellarini qurish;
- turli xil kognitiv harakatlarni ta’minlovchi tizimlarni tartibga solish;
- tabiiy tilda ifodalangan fikrlarni shaxs va kompyuter dasturi tomonidan tushunish va shakllantirish;
- tushunishga qodir kompyuter dasturi modelini ishlab chiqish va matn yaratish;
- psixik harakatlarga xizmat qiluvchi psixik jarayonlarning keng doirasidir [2; 6–7].

Ma’lumki, kognitivizm antik davrlarga borib taqaladigan uzoq va ulkan an’anaga ega. Bugungi kungacha psixologiya, falsafa va mantiq ilmida inson aql-zakovati va tafakkur qonuniyatlari o‘rganib kelingan. Ammo kognitiv tilshunoslikda bu qonuniyatlar o‘zgacha va yangicha uslubda o‘rganildi. Kognitiv fanda asosiy e’tibor insonning bilishiga qaratildi. Bunda insonning kognitiv dunyosi uning xulq-atvori va faollik paytida yuzaga keladigan faoliyati bilan o‘rganiladi.

Kognitivizmning eng muhim tamoyillaridan biri – bu shaxsni ma’lum sxemalar, dasturlar, rejalar, strategiyalar asosida o‘z fikrlash faoliyatida boshqariladigan, harakat qiluvchi, faol idrok etuvchi va ma’lumot ishlab chiqaruvchi sifatida talqin qilishdir. Kognitiv fanning o‘ziga esa inson miyasidagi psixik jarayonlarni boshqaradigan umumiy tamoyillar haqidagi fan sifatida qarala boshlandi [2; 8].

Kognitiv tilshunoslik tafakkur va tilning murakkab aloqalarini o‘rganishda nazariy asos sifatida xizmat qilib, uning yutuqlari madaniyat, psixologiya, tarjima va sun’iy intellekt kabi turli yo‘nalishlarda qo‘llaniladi. Bu soha tilni inson tafakkurining markaziy ifodasi sifatida ko‘rib, uning madaniy va kognitiv jihatlarini tahlil qilishga yordam beradi.

Kognitiv tilshunoslikda ko‘p qo‘llaniladigan terminlardan biri – bu *konsept* termini bo‘lib, uning ta’rifi borasida dunyo olimlari orasida ko‘plab munozarali fikrlar mavjud. Darhaqiqat, bugungi kunda konsept, konseptual tahlil, konseptuallashish jarayoni, konseptosfera kabi terminlarga juda ko‘p duch kelmoqdamiz. Kognitiv tilshunoslikda *konsept* va *konseptosfera* tushunchalari tafakkur jarayonlarini o‘rganishning asosiy elementlari hisoblanadi. Ular inson ongida obyektiv voqelikni aks ettirish, tuzish va til vositasida ifodalashning markaziy kategoriya va tizimlari sifatida talqin etiladi. Avvalambor, konsept termini qanday paydo bo‘lgan va uning qanday turlari mavjud, degan savollarga javob izlasak. Rus tilshunoslaridan V.A.Maslova konsept termini adabiyotshunoslikda avvaldan mavjud bo‘lsa-da, 1928-yilda S.A.Askoldov “Konsept va so‘z” maqolasida uning ilgari e’tibor qaratilmagan jihatlarini tahlilga tortganligini yozadi [2; 45–50]. Bugungi kunda “konsept” tushunchasi kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchasi sifatida tan olinadi. Shunga qaramay, bu tushuncha turli ilmiy maktablar va olimlarning qarashlariga ko‘ra juda xilma-xil talqin qilinadi.

Konsept fikr kategoriyasi bo‘lib, kuzatilmaydigan abstrakt tushuncha sanaladi. Bu uning mazmunini turlicha talqin qilish uchun keng imkoniyat yaratadi. Konsept haqiqat hodisalarini til egasining ta’limi, shaxsiy tajribasi, kasbiy

va ijtimoiy tajribasi ta’sirida aks ettiradi va talqin qiladi. Til sohiblarining individualligi sababli so‘z ma’nosini anglashdagi farqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

D.S. Lixachevga ko‘ra, konsept so‘z ma’nolaridan kelib chiqmaydi, balki o‘rganilgan ma’no va gapiruvchining shaxsiy hayotiy tajribasining to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi. Shu ma’noda konsept til orqali muloqotda o‘ziga xos almashtiruvchi vazifani bajaradi [3; 3–9].

E.S. Kubryakova konsept tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Konsept – xotira, mental leksikon, konseptual tizim va miyaning tili, butun dunyoqarashning operativ birligi, bilim kvanti. Eng muhim konseptlar tilda ifodalanadi” [1; 90–92].

A.A. Zalevskaya konseptni inson ongida obyektiv mavjud bo‘lgan, dinamik xarakterga ega bo‘lgan perseptiv–kognitiv–affektiv tuzilma sifatida ta’riflaydi. U bu jihatlari bilan ilmiy tavsif mahsuloti bo‘lgan tushuncha va ma’nolardan (konstruktlardan) farq qiladi [4; 39].

S.G. Vorkachev konseptni “fikrning operatsion birligi” [5; 43], “kollektiv bilim birligi (yuqori ma’naviy mohiyatlarga yo‘naltirilgan), til vositasida ifodalangan va etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan belgilangan” deb ta’riflaydi [5; 51–52]. Olimning fikricha, agar mental tuzilma etnomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lmasa, uni konseptlarga kiritib bo‘lmaydi.

M.V. Pimenova quyidagicha qayd etadi: “Inson tashqi va ichki dunyo obyektlari haqida bilgan, hisoblagan va tasavvur qilgan narsalar konsept deb ataladi. Konsept – bu dunyoning biror fragmenti haqidagi tasavvurdur” [6; 8]. V.V. Krasnixning konsepsiyasiga ko‘ra esa konsept faqat yuqori darajadagi abstraktsiya birligi bo‘lishi mumkin, u milliy-madaniy maxsuslikka ega bo‘lib, so‘z bilan ataladi va konsept nomi bo‘yicha leksik assotsiatsiyalarni o‘z ichiga oladi. V.V. Krasnix konseptdan tashqari yana bir kognitiv birlikni – kognitiv strukturani ta’kidlaydi. “Kognitiv makonlar va kognitiv baza kognitiv strukturalar orqali shakllanadi, ular ma’lumotni kodlash va saqlashning mazmunli (ya’ni, ma’lum mazmun-qiymatga ega) shaklidir. Kognitiv strukturalar – bu ma’lum tarzda tashkil

etilgan va tuzilgan kognitiv makon qismlari. Kognitiv strukturalar bizning kompetensiyamizni shakllantiradi va uning asosida yotadi...” “Kognitiv struktura – ajratib bo‘lmaydigan va bo‘linmaydigan kognitiv birlik, “siqilgan” bilim va/yoki tasavvur saqlovchi” [7; 64]. V.V. Krasnix konsept va kognitiv struktura tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni tushuntirib bermaydi; aslida, konseptni kognitiv struktura sifatida va aksincha aniqlash mumkin. Barcha keltirilgan konsept ta’riflarida o‘xshashliklar mavjud – konsept ma‘no jihatidan hajmli, diskret bir birlik, fikrlash yoki xotira birligi sifatida belgilanadi va xalq madaniyatini aks ettiradi.

Konseptual tahlil jarayonida har bir konseptning o‘ziga xos elementlari o‘rganilib, ular o‘rtasidagi aloqalar va mantiqiy bog‘liqliklar tahlil qilinadi. Konseptual tahlil muayyan nazariy paradigmalarga asoslanadi. Bu nazariyaga ko‘ra tushunchaning ma‘nosi va mohiyati belgilab olinadi.

Ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan shakllantirilgan va odamlar xotirasida saqlanib qolgan konseptlar tilning konseptosferasini tashkil qiladi. Konseptosfera tushunchasini birinchi bo‘lib D.S.Lixachev fanda qo‘llagan bo‘lib, u ushbu atamadan konseptlar to‘plamini belgilash uchun foydalangan [3; 8–9]. U konseptosferaga konseptlar majmui sifatida qaraydi.

Konseptosfera – bu inson ongida mavjud bo‘lgan tushunchalar, bilimlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida shakllangan tizim bo‘lib, til orqali ifodalanadi va tilning semantik qirralarini o‘rganishda asosiy kategoriya hisoblanadi. U insonning fikrlash jarayoni, mantiqiy tahlili va madaniy konteksti orqali tushunchalarni shakllantirishi va til vositasida ifodalashini tushunishga yordam beradi. Konseptlar inson tomonidan qabul qilingan, ongda shakllangan va til orqali ifodalangan tushunchalar bo‘lsa, konseptosfera barcha konseptlarning tizimlashtirilgan yig‘indisi bo‘lib, u til va madaniyatga qarab farqlanadi.

Konseptosfera insonning individual va jamiyatga xos ***“kognitiv xaritasi”*** sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xarita orqali inson o‘z bilimlarini muayyan tizimda tashkil qiladi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi.

Konseptlar va konseptosfera tafakkurning asosini tashkil qiladi. Ular insonning dunyoni idrok etishiga, hodisalar va voqealarga munosabat bildirishiga yordam beradi. Konseptosfera tafakkurda bilimlarni tartibga soladi va obyektiv voqelikni kognitiv xarita shaklida aks ettiradi. Bu jarayon orqali inson har bir hodisaga ma’no berib, uni ma’lum bir konseptual kategoriya bilan bog‘laydi. Konseptosfera millatlararo muloqotda insonlarning bir-birini tushunishini ta’minlaydi. Turli tillardagi konseptlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish madaniy tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, o‘zbek konseptosferasida “mehmondo‘stlik” asosiy o‘rin tutsa, boshqa madaniyatlarda bu kamroq ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

Konseptlar juda xilma-xil sohalarni tashkil qiladi, ular birgalikda milliy tilning konseptosferasini yaratadi. Shu bilan birga, D.S.Lixachev milliy tilning konseptlar sohasini (yoki boshqacha aytganda, konseptosferasini) xalq madaniyati bilan eng yaqin aloqada o‘rganish zarurligini ta’kidladi. U shunday deb yozgan edi: “Milliy tilning konseptosferasi xalqning butun madaniyati – adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi, ilm-fan, tasviriy san’ati qanchalik boy bo‘lsa, shunchalik boy bo‘ladi (u ham tilga, demak, milliy konseptosferaga ham bevosita bog‘liqdir), u xalqning butun tarixiy tajribasi bilan bog‘liq” [3; 284].

S.A.Kosharnaya shuningdek, konseptosfera – konseptual maydonlarni tashkil etuvchi tushunchalar assotsiatsiyasining har xil turlari (ikkilik, qarama-qarshiliklardan konseptual qator va to‘plamlargacha) deb hisoblaydi. Maydonlar birikmasi konseptosferani tashkil etadi [8; 54].

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, konseptlar shakllanishining manbayi odamlarning kognitiv faoliyatidir. Konseptosfera – bu aqliy tasvirlar sohasi. Badiiy asarlar yoki xalq og‘zaki ijodi, frazeologizmlardagi konseptlarni o‘rganish butun bir davr, hatto butun bir xalqning mentaliteti, dunyoqarashini tushunishga yordam beradi. Demak, til birliklarini, xususan, barqaror birikmalarni konseptual jihatdan o‘rganish, obyektiv voqelikni shaxs ongida aks ettirish yo‘llarini o‘rganish quyidagi sabablarga ko‘ra dolzarbdir:

Birinchidan, dunyoning lisoniy manzarasi tilning barqaror birliklarida yorqin namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, eng muhim tilga xos tushunchalar turg‘un birikmalarda milliy madaniyat tashuvchisi sifatida o‘zining to‘laqonli va ishonchli ifodasini topadi. Shubhasiz, konsept psixik shakllanish, xotira birligi, ongimiz mevasi bo‘lib, u shaxsning ruhiy hayotiga bog‘liqdir. Konsept nafaqat kognitiv shakllanish, shaxsning aqliy va ruhiy resurslarining birligi, balki millat madaniyati va tarixi ekanligi haqiqatdir. Konsept mazmunan boy bo‘lib, obyektning mavjud xususiyatlarini aks ettiruvchi bilimlar bilan bog‘lanadi. Barcha konseptlarda turli davrlarda paydo bo‘lgan g‘oyalar shakllanadi.

Uchinchidan, til birliklari insonning obyektiv voqelikni qanday qabul qilishini va ongida qanday aks ettirishini ochib beradi. Bu orqali insonning kognitiv jarayonlari, ya’ni idrok, tafakkur va xotira tizimi chuqur tahlil qilinadi. Masalan, “tog‘ni talqon qilish” iborasi o‘zbek xalqining sabr-toqat va mehnatni qadrlashini aks ettiradi.

To‘rtinchidan, til birliklari dunyoqarashning til orqali qanday ifodalanishini ko‘rsatadi. Shaxsning dunyo haqidagi tasavvurlari va madaniyatning unga ta’siri frazeologizmlar va barqaror iboralarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, g‘arbda “time is money” (vaqt bu pul) iborasi vaqtni iqtisodiy qiymat sifatida qabul qilishni aks ettirsa, sharqiy madaniyatlarda vaqtga falsafiy yoki taqdir nuqtayi nazaridan qarash ustun turadi.

Bundan tashqari, barqaror birikmalar ham madaniyat va til rivoji bilan o‘zgaradi. Ularning hozirgi zamon ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga qanday moslashayotganini o‘rganish muhimdir. Ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning tilga ta’sirini aniqlashda barqaror birikmalarning o‘rni beqiyosdir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, til birliklari va barqaror birikmalarni konseptual jihatdan o‘rganish til, madaniyat va inson ongining bir-biriga bog‘liq jarayonlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, tarjima, madaniyatlararo muloqot, ta’lim, sun’iy intellekt va boshqa ko‘plab sohalarda

amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bu mavzuning dolzarbligi ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda yuqori.

Til birliklari va barqaror birikmalarni konseptual jihatdan o‘rganish zamonaviy lingvistika, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu o‘rganishning ahamiyatini quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Til birliklari va barqaror birikmalarni konseptual jihatdan o‘rganish inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu jarayon tilning faqat grammatik va leksik jihatlarigina emas, balki uning kognitiv va madaniy asoslarini ham o‘rganishga qaratilgan. Til inson tafakkuri mahsuli sifatida, atrof-muhitni idrok etish va tushunish jarayonining aksidir. Shuning uchun til birliklari orqali insonning dunyoni qanday qabul qilishi, tafakkur shakllari va madaniy qadriyatlari haqida ma’lumot olish mumkin.

Til birliklarining konseptual tahlili madaniy va universal konseptlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Har bir til o‘ziga xos milliy qadriyatlar, dunyoqarash va hayotiy tajribalarni aks ettiradi. Masalan, metaforalar, frazeologizmlar va boshqa barqaror birikmalar orqali xalqning tarixiy tajribasi, mantiqiy xulosalari va madaniy xususiyatlari haqida chuqur bilim olish mumkin. Shu bilan birga, universal konseptlarni o‘rganish turli xalqlar tafakkuridagi o‘xshashliklarni aniqlashga yordam beradi, bu esa globallashuv davrida millatlararo muloqotni rivojlantirish uchun muhimdir.

Bu jarayon, shuningdek, tilni samarali o‘qitish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Talabalarga til birliklarining konseptual mazmunini tushuntirish orqali nafaqat lug‘at zaxirasini oshirish, balki ular orqali ifodalangan madaniy va ijtimoiy kontekstni anglashga yordam beriladi. Bu esa chet tillarni o‘rganishni osonlashtiradi va chuqurlashtiradi.

Amaliy tadqiqotlarda esa konseptual tahlil tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika va kognitiv fanlar kesishmasida yangi imkoniyatlar yaratadi. Masalan, bu yondashuv yordamida reklama, notiqlik san’ati yoki tilni avtomatlashtirish sohalarida yangi samarali uslublar ishlab chiqish mumkin. Shu

tariqa, tilni o‘rganish nafaqat akademik, balki ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, har bir sohada yangi g‘oyalarni ilgari surishga xizmat qiladi.

Umuman, til birliklari va barqaror birikmalarni konseptual o‘rganish, nafaqat tilshunoslikni rivojlantiradi, balki insoniyat tafakkurining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi muhim ilmiy va madaniy faoliyat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С.Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрац, Л.Г.Лузина. – Москва, 1996.
2. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетрасистемс, 2004.
3. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия ОРЯ, Серия литературы и языка. – Москва, 1993. – №1.
4. Залевская А.А. Психолингвистический подход к проблеме концепта// Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001,
5. Воркачев С. Счастье как лингвокультурный концепт. – Москва, 2004.
6. Пименова М.В.. Предисловие / Введение в когнитивную лингвистику. Под ред. М.В.Пименовой. Вып.4. – Кемерово, 2004.
7. Красных В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? – Москва, 2003.
8. Кошарная С.А. Миф и язык. – Белгород: Изд-во Белгор. гос. ун-та, 2002.